
Toshloq tumanida «Yashil makon» umummilliy loyihasining bahorgi mavsumi uyushqoqlik bilan o'tkazilmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida joriy yil bahorgi mavsumida ham Toshloq tumanida mevali, manzarali daraxt ko'chatlarini ekish tadbirlari bo'lib o'tmoqda.

Loyiha doirasida tumandagi umumta'lim maktablari hamda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'sh turgan yer maydonlariga mevali, manzarali va tul xildagi gul ko'chatlari ekilmoqda.

Xususan, tumandagi 26-sonli DMTTda tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'lim boshlig'i Abdumajid Soliyev hamda bog'cha xodimlari ishtirokida ko'chat ekish tadbirlari bo'lib o'tdi.

2024-04-03 13:39:00